
Mahallalar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida bajarilayotgan ishlar mahalla faollari ishtirokida o'rganilmoqda

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mazkur qarorga asosan shahrimizdagi 59 ta loyihalar uchun 86 mlrd. so'mga yaqin mablag' ajratilgan.

Xususan, "Beglar" mahalla fuqarolar yig'ini hududida ham oqova va ichimlik suvi tarmog'i torish uchun qurilish-montaj ishlari davom etmoqda.

Qarorga asosan respublika byudjetidan 4 mlrd. so'mdan ortiq mablag' ajratilgan loyihaning bajarilishi natijasida hududdagi xonadonlar toza ichimlik suvi ta'minlanadi.

Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov va mahalla faollari qurilish-montaj jarayonlarini o'rganishdi. Ishni sifatli bajarish bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-31 10:36:14